

OLIY TA'LIMDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT DARSLARINI TASHKIL ETISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

Mirzayev Ibroxim Ilhomovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Tel: +998 99 876 76 71

Annotasiya: Maqolada oliy ta'limda jismoniy tarbiya va sport darslarini tashkil etishda axborot texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, jismoniy, ma'naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish, bo'lajak jismoniy tarbiya va sport o'qituvchilari uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ayrim tavsiyalar berilgan va muxokama qilingan.

Kalit so'zlar: *sport, pedagogik texnologiyalar, pedagogik jarayon, axborot, axborot texnologiyalari, zamonaviy pedagogik texnologiya, uslublar, mezonlar, amaliy darslar, interfaol ta'lim, obrazli fikrlash, intellektual rivojlanish.*

Masalaning dolzarbligi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqbol g'oyasi Respublika Konstitusiyasida e'tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko'tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o'rin egallashga yo'naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo'lishi eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o'rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko'lamini hosil qilish, jismoniy, ma'naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog'liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug' ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta'minlash yosh avlodni xar tomonlama komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog'liqdir.

Jismoniy tarbiya va sport o'qituvchilari o'qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, mashg'ulotlar o'tkazishga tayyorlanishi, turli o'quv qurollaridan samarali foydalanishi hamda o'quv rejasi va dasturlarini metodologiyasini ochib berishi lozim. Biroq, shuni unutmaslik lozimki, o'qitish va o'rgatish jarayonlarini boshqarish, mavjud o'quv

vositalaridan samarali foydalanish va o'quv mashg'ulotlarida o'quvchilarga imkon qadar tushunarli bo'lishini ta'minlash va shu kabi boshqa ko'pgina vazifalar o'qituvchining zimmasiga to'liq yuklatiladi. Shunday ekan jismoniy tarbiya va sport fanlari o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim. Bundan maqsad shuki, o'qitish uslubi shunday yo'lga qo'yilsinki, bunda o'quvchilar o'qitilayotgan fanni har qanday sharoitda ham to'liq o'zlashtira olishsin.[1]

Jismoniy tarbiya va sport darslarida o'qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirish metodi va vositalari. Hozirgi kunda barcha pedagoglar singari jismoniy tarbiya o'qituvchilariga ham darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovasion yondashuvni, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Darhaqiqat, hozirgi globallashuv jarayonlari tobora keskinlashayotgan bir davrda bevosita yoshlarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarligi bilan shug'ullanuvchi jismoniy tarbiya o'qituvchilariga qaratilayotgan e'tibor bu borada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zero, ularning muhim xizmatlaridan biri shundaki, o'quvchi-talabalarni tarbiyaviy, madaniy, tibbiy, sanoat qurilish, ishlab chiqarish kabi kasb-hunarga yo'naltirish bo'lsa, ikkinchidan ularni maxsus jismoniy tayyorgarlik bilan qurollanishga ma'lum darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda yosh avlodga ta'lim berayotgan o'qituvchilarning o'zlari zamonaviy innovasion texnologiyalarni to'liq o'zlashtirgan, axborot-kommunikasiya vositalaridan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishlari, umuman barcha ta'lim-tarbiya sirlaridan voqif bo'lishlari talab etiladi.

Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilari ilmiy pedagogik faoliyati bilan bog'liq masalalarni o'rganishda, eng avvalo, mazkur hodisaga oid tushunchalarning mazmun-mohiyatini tahlil etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, "jismoniy tarbiya" tushunchasining o'ziga bir qancha ta'riflar berilganligini ko'rishimiz mumkin. "Jismoniy tarbiya – pedagogik jarayon bo'lib, inson organizmini morfologik va funksional jihatdan takomillashtirishga, uning hayoti uchun muhim bo'lgan asosiy harakat malakasini, mahoratini, ular bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni shakllantirish va yahshilashga qaratilgan" [2]. "Jismoniy tarbiya organizmni har tomonlama chiniqtirishga qaratilgan, sog'liqni mustahkamlashni nazarda tutgan tarbiya, jismoniy mashqlar" kabi ta'riflar berilgan [3].

Jismoniy tarbiya va sport darslarida axborot texnologiyalarining ta'lim berishga mo'ljallangan qismida o'quv materiallarini taqdim etganda uning o'quvchilar tomonidan tushunish darajasiga alohida e'tibor beriladi. Taqdim etilayotgan o'quv

materiallari ta'lim oluvchilar uchun sodda, qulay, ko'rgazmali va yaxshi o'zlashtirish uchun izohli ma'lumotlar tavsiya etilgan bo'lishi, shuningdek, o'quv materiallarida kerakli ta'riflar, tayanch iboralar, kalit so'zlarga murojaat qilishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalari rivojlanadi, o'quvchilar orasida emosional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, axborot texnologiyalarining jismoniy tarbiya va sport fanlarida qo'llash va dars jarayonini axborot texnologiyalari vositasida takomillashtirish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni o'quvchilarga taqdim etish, unda obrazli fikrlash, intelluktual rivojlanish darajasini yuqoriga ko'tarib qolmasdan, bu jarayon va an'anaviy o'qitish o'rtasidagi nisbatni o'zgartirishga olib keladi.

ADABIYOTLAR.

1. Mirzakarimov Yuldashboy Abdinabievich "jismoniy tarbiya va sport darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning jihatlari" Innovative, educational, natural and social sciences. 2021 yil.
2. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. O'quv qo'llanma. T., O'zDJTI, 2005. 12-b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. 1-jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. 95-b.
4. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. –T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008, 3-48 bet.
5. Kuznesova. N. Formirovanie sistem ponyatiy v sovremennom obuchenii. –L. 1985 god.
6. Levina M. Texnologii professionalnogo pedagogicheskogo obrazovaniya. –M., 2001 g.
7. Materiali Respublikanskoy nauchno-prakticheskoy konfe-rensii «Problemi formirovaniya i sovershenstvovaniya soder-janiya soderjaniya srednego spetsialnogo, professionalnogo obrazovaniya» Tashkent. 2001 g.
8. Fayziev M. A. Methods of formation of knowledge and skills of students on the basis of computer simulation model (on the example of the subject "Computer Science and Information Technology"): Dis.... Kand. ped. science //Tashkent: TDPU. – 2008.

9. Toshturdiyevna K. D., Asfandiyarovich F. M. FORMATION OF THE SPIRITUAL HERITAGE OF TEMURY QUEENS IN SCHOOL GIRLS ON THE BASIS OF PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES //International Conference on Research Identity, Value and Ethics. – 2023. – С. 47-51.
10. Shadiev R. et al. Comparing effects of STR versus SELT on cognitive load //2019 Twelfth International Conference on Ubi-Media Computing (Ubi-Media). – IEEE, 2019. – С. 284-287.
11. Baigunissova G. et al. Flipped classroom method in higher education: a case of Kazakhstan //International Conference on Innovative Technologies and Learning. – Cham : Springer Nature Switzerland, 2023. – С. 232-241.
12. Shadiev R., Shadiev N., Fayziev M. Facilitating online cross-cultural learning project with speech-enabled language translation technology //2020 IEEE 20th International Conference on Advanced Learning Technologies (ICALT). – IEEE, 2020. – С. 223-225.
13. Шадиев Р. Н. и др. Развитие межкультурной компетенции в виртуальной среде обучения //Технологические тренды и наукоемкая экономика: бизнес, отрасли, регионы. – 2021. – С. 312-319.
14. Shaimerdenova N. et al. Developing Reading Literacy with Digital Texts //International Conference on Innovative Technologies and Learning. – Cham : Springer Nature Switzerland, 2024. – С. 159-166.
15. Shadiev R. et al. Immersive Learning Environments: Fostering Self-directed Learning in Junior High School Students Through Virtual Tours //International Conference on Innovative Technologies and Learning. – Cham : Springer Nature Switzerland, 2024. – С. 67-76.